



SA`DIY SHEROZIY “GULISTON” ASARINING SHARQ
ADABIYOTIDA TUTGAN O’RNI.

Xoliqulova Zarnigor Azim qizi

Termiz davlar universiteti

Filologiya va tillarni o`qitishi fakulteti

2-bosqich talabasi

06984404@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada g‘azal janrining kashshofi va ustodi sifatida ulug‘langan adib, shoir va mutafakkir Shayx Muslihiddin Sa`diy Sheraziyning fors adabiyoti tarixida muhim o`rin tutgan “Guliston” asarining Sharq adabiyotida tutgan mavqeyi bilan bir qatorda undagi hikoyat va baytlarning mazmun-mohiyati tahlil qilinadi.

Kalit so`zlar: Shayx, axloqiy- didaktik asarlar, klassik adabiyot, “Guliston”, “Bo`ston”, Sharq adabiyoti, fors-tojik klassik poeziyasi.

Аннотация: В статье анализируется содержание и суть рассказов и стихов произведения «Гулистан», занимающего важное место в истории персидской литературы, а также его положение в восточной литературе, писателя, поэта и мыслителя шейха Муслихиддина Саади Ширази, который почитается как пионер и мастер жанра газели.

Ключевые слова: Шейх, нравственно-дидактические произведения, классическая литература, «Гулистан», «Бостон», восточная литература, персидско-таджикская классическая поэзия.

Abstract: This article analyzes the content and essence of the stories and verses in the work "Gulistan", which occupies an important place in the history of Persian literature, as well as its position in Eastern literature, by the writer, poet,



and thinker Sheikh Muslihiddin Sa`di Shirazi, who is revered as the pioneer and master of the ghazal genre.

Keywords: Sheikh, moral-didactic works, classical literature, "Guliston", "Boston", Eastern literature, Persian-Tajik classical poetry.

Yillar davomida insonlar ta`lim va tarbiyaning katta qismini ma`naviy qadriyatlardan, jumladan, buyuk mutafakkirlarning pand-nasihat, o`gitlardan iborat bo`lgan asarlari orqali olib kelgan. Xalqimiz tarixida ajdodlarimiz tomonidan ta`lim-tarbiya, axloq va odob masalalariga bag`ishlangan axloqiy-didaktik mavzudagi ko`plab asarlar yaratilgan. Bunga misol qilib Yusuf xos Hojibning “Qutadg`u bilig”, Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq”, Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror”, Kaykovusning “Qobusnama” va shu bilan bir qatorda Sa`diy Sheroziyning “Guliston” va “Bo`ston” asarlarini ham olishimiz mumkin. Sharq klassik adabiyotining buyuk namoyandalaridan biri bo`lgan Sa`diy Sheroziy o`rta va yaqin Sharq o`lkalarida Shayx Sa`diy nomi bilan mashhur bo`lgan. Uning g`azallardagi har bir misrada chuqur ma`no, go`zal ohang va shu bilan birqalikda og`ir dard motivi yetakchilik qiladi. Shuning uchun ham shoirni Eronda qanchalar sevsalar, Turkistonda ham shuncha sevadilar. Eron-u Turkistonni qo`ying, fransuz Volter, nemis Gyotelar ham o`z asarlarida uning she`rlariga murojaat qilgan. O`z davrida uning ko`plab asarlari o`zbek maktablarida darslik sifatida o`tilgan. Sa`diy Sheroziy umrining 20 yildan ko`prog`i sayohatda o`tgan. Bu sayohatlari davomida ko`rgan- bilganlarini umumlashtirib, sayqallab “Bo`ston” hamda “Guliston” asarlariga ixcham hikoyalar qilib kiritgan. Fors-tojik adabiyoti tarixida Sa`diy Sheroziyning “Guliston” asari juda katta ahamiyatga ega. Ushbu asar o`ziga xos didaktik hikoyalar va she`riy aforizmlar to`plamidir. Kitob 8 bobdan iborat. Asarda insoniyatning axloqiy fazilatlari, do`stlik, sabr-toqat,adolat va xushmuomalalik kabi mavzular muhokama qilinadi. Bundan tashqari asarda jahongashta shoir o`z hayotida ko`rgan, bilgan voqealarni bayon etib, ulardan



axloqiy xulosalar chiqaradi. Undagi qisqa-qisqa hikoyalarda dunyo-dunyo ma`no bo`lgani uchun ham bu kitob jahon adabiyotining oltin fondiga kiritilgan. Adabiyotshunos olimlar nazdida fors-tojik klassik poeziyasining eng porloq asari Firdavsiyning “Shohnoma” asari bo`lsa, nasriy asarlarning eng yorqin na`munasi esa Sa`diy Sheroziyning “Guliston” asari hisoblanadi. Bu ta`limiy asarda yozuvchi o`z davridagi eng muhim va katta-katta siyosiy, iqtisodiy voqealarni aks ettirar, axloqiy talqin etar ekan, o`sha davr kishilarining xilma-xil obrazlarini yaratadiki, bu obrazlarning umumlashtiruvchi kuchi ham, tasir doirasi ham shoirning o`z yurti va davri chegarasidan chiqib ketadi. Asardagi davr orzulari umumbashariyat orzulari bilan hamohang.

Asarda keltirib o`tilgan fiklarga isbot va dalil sifatida shu mavzuga bog`liq bo`lgan hikoyatlar ham berilgan. Asardagi “Baliq va tovuq” hikoyasida o`z hayotini saqlash uchun tovuqqa qarshi kurashgan baliq obrazi uchraydi. Hikoya insonning hayotdagи qiyinchiliklarga qarshi turishi va o`z maqsadlari uchun kurashish zarurligini ta`kidlaydi. “Hikmatli it” hikoyasida esa bir it o`zining sadoqatini va do`stligini ko`rsatadi. U egasiga sidqi dildan xizmat qiladi va uni qiyinchiliklardan qutqaradi. Hikoya sadoqat, do`stlik va fidoiylikning ahamiyatini o`rgatadi. Asarda o`z qobiliyatları va imkoniyatlari haqida ko`plab qo`rquv va shubhalar bilan yashab, xavfsiz bo`lsa ham talvasaga tushib behudaga shov-shuv solib boshqalarning ham tinchligini buzgan inson obrazi “Daryo ko`rmagan qul” hikoyatida yoritib berilgan. Ushbu hikoyada qul daryoni ko`rmagani uchun uning haqiqiy kuchi va imkoniyatlarini anglay olmaydi, bu esa qulning bilim va tajribasining cheklanganligini anglatadi. Sa`diy bu hikoya orqali o`quvchilarni o`z qo`rquvlarini yengib, hayotni to`liq kashf etishga chaqiradi. Bundan tashqari asarda yovuzlikka qarshi turish va o`z axloqiy qadriyatlarini himoya qilish mavzulari yoritilgan hikoya ham mavjud. “Yovuz bahor va toza kishi” hikoyasi aynan shu mavzuda bo`lib, unda yovuz bahor inson ustiga qanchadan qancha yomonliklar va



yovuzliklar qilsa ham toza kishi o'z ahdida sodiq turib, yozuvlikka qarshi kurashadi.

Asarda hikoyatlardan tashqari 595 taga yaqin fors tilidagi qisqa she`rlar mavjud bo`lib, ularning har biri ikki baytdan ozroq, ruboiy shaklida ham uchraydi. Sa`diy asarning ba`zi joylarida hayotda yo'l topolmay qolgan kishilarni sargardonlikdan qutqarish, ularga to`g`ri yo`lni ko`rsatib berishni o`zining burchi hisoblaydi. U bir she`rida:

Chu ko`rding ko`r kishi yo`linda chohdir,

Indamay o`tirsang katta gunohdir,-

der ekan boshqalarga ham shu burchni uqtiradi. Ijodkor insoniy qadr-qimmatni u birinchi galda mehnatda, o`z mehnatiga, bilim va hunariga tayanishida, birovga xor bo`lmaslikda, deb tushunadi va shunday ta`lim beradi:

O`z mehnatida non yegan kishi

Hotam minnatidan ozod er-kishi.

Hamma narsa faqat harakat va jasorat bilan qo`lga kirishi mumkinligi „Guliston“ning ko`p hikoyatlarida lo`nda qilib ko`rsatib berilgan. “Guliston” asari ko`plab boshqa sharq adabiy asarlariga ilhom manbayi bo`lib xizmat qilgan. Masalan, Abdurahmon Jomiyning “Salomon va Abdurahmon”, Nizomiy Ganjaviyning qissalari, Kaykovusning “Qobusnama” va she`riyat sultonini bo`lgan Alisher Navoiyning “Mahbub ul- qulb” asarlari ham aynan “Guliston” asarining ta`sirida yozilgan bo`lib, ularda asar mazmuniga yaqin bo`lgan hikoyalar mavjud. Shundan ham bilishimiz mumkinki, ushbu asar sharq adabiyotining eng nodir asari bo`lishi bilan bir qatorda, yana ko`plab shunga o`xshash noyob va mashhur asarlarning yozilishiga turtki bo`lgan desak mubolag`a bo`lmaydi. Ushbu asarning ahamiyati bugungi kunda ham saqlanib qolmoqda, chunki uning g`oyalari va mazmuni zamonaviy hayotda ham dolzarbdir.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sa'diy Sherzodiy "Guliston". www.ziyouz.com kutubxonasi.
2. Xayrullaev M.M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkirlari. Toshkent: O'zbekiston, 1971.
3. Bobur Udayev. Sa'diy Sherzodiy "Guliston" asari tarjimalarida adaptatsiya masalalari// Magistrlik dissertatsiyasi., – Toshkent: 2018.